

SAMARQAND TEATRI

Rahmanova Nargiza

O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Instituti

Farg'ona mintaqaviy filiali

Qo'g'irchoqlarni ishlab chiqarish texnologiyasi 2- bosqich talabasi

Annotatsiya: Quyidagi maqolada Hamid Olimjon nomidagi Samarqand viloyat o'zbek davlat musiqali drama teatri haqida so'z yuritiladi. O'zbekistonning ko'hna teatrlaridan biri hisoblanmish bu teatrning o'tmishi va kelajagi, ya'ni kechasi va buguni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Teatr, spektakl, tarix, yil, davlat, musiqali, ko'hna, maqomi, munosabat, adabiy, emakdosh, badiiy, faoliyat, obraz, rahbar, rejissor, aktyor, opera, konservatoriya, jahon, vatanparvarlik, asarlar, repertuar.

Hamid Olimjon nomidagi Samarqand viloyat o'zbek davlat musiqali drama teatri — O'zbekistondagi ko'hna teatrlardan biri. 1914-yil 15-yanvarda Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" spektakli bilan ochilgan (spektaklni Behbudiy va A. Badriy rahbarligidagi truppa sahnalashtirgan). 1918-yil ma'rifatparvarlar to'dasi ko'p tilli Samarqand xalq teatrining o'zbek truppasiga, 1920-yil "musulmon agittruppasi"ga aylanadi. 1930-yil O'zbekistonning Samarqanddagi poytaxt teatri maqomida ishlayotgan O'zbek davlat drama truppasi yangi poytaxt — Toshkentga ko'chirilishi munosabati bilan "Musulmon agittruppasi" va "Ko'k ko'ylak" havaskor teatr to'dasi asosida Samarqand viloyat o'zbek davlat musikal drama teatri tashkil topdi. Teatrga H.Narziqulov boshliq, S. Jo'raboyev bosh rejissor, Sobir Abdulla adabiy emakdosh etib tayinlandi. Truppaning qolgan a'zolari Ahmad Sulaymonov, Tolibjon Sodiqov, Burhon To'rayev, Asror Jo'rayev, Rustam Mansurov, Mardon Roziqov, Yusuf Komilov, Kayum G'afforov, Shamsi Ma'rufiy, E'tibor Ko'ziboyeva, Hanifa Mavlonova, Sharif Akromov, Mavlon

Muhiddinov, Istat Xudoyberdiyeva, Mo'minjon Mahmudov, Baqo Tojiyev, Halima Zufarova, Zuhra Fayziyeva, Fotima Shaydullina, To'ti G'afforova, Mavluda A'zamova singari san'atkorlardan iborat edi. Ko'p o'tmay jamoaga Zohid Sodiqov, Zaynab Sodiqova, Rauf Boltayev, Kifoyat Muslimova, Azim Nasimov, Ikroma Boltayeva, R. Ayupova va boshqa kelib qo'shiladi. Teatr o'z faoliyatini 1930-yil S. Abdullaning "Bog'bon qizi" (T. Sodiqov; rejissor S. Jo'raboyev) musiqali dramasi bilan boshladi. Ketma-ket "Halima", "O'rtoqlar", "O't bilan o'ynashmangiz" kabi spektakllar sahnalashtirildi. "G'unchalar" (3. Fatxullin; D. Zokirov) spektakli teatr hayotida burilish bo'ldi. "Lyubov Yarovaya", "Platon Krechet", "Begona bola", "Makr va muxabbat" singari chet el va jahon mumtoz asarlari ham 30-yillarning oxirlarida sahnalashtirildi. Teatrda professionalizm, ijroda mahorat rusumlarini chuqurroq qaror toptirish maqsadida Hamza teatri shekspirxonlik va rej.lik laboratoriyasining a'zosi Bobo Xo'jayev Samarqand teatrining badiiy rahbari etib tayinlandi (1938-yil). "Farhod va Shirin", "Gulsara", "Chegarachilar" kabi spektakllar misolida badiiy obraz darajasi ko'tarildi. Teatrning 30yillardagi faoliyati 1939-yil Toshkentda namoyish etilgan "Adolat", "Gulsara", "Nomus", "Makr va muxabbat", "Nasriddin afandi" hisobot ijodiy safari bilan yakunlandi. Yakunga binoan A. Jo'rayev, Z. Sodiqov, I. Boltayeva, U. Abdullayev, I. Shkvalovlarga O'zbekistonda xizmat kursatgan artist faxriy unvoni berildi. Bu teatrga berilgan birinchi unvonlar edi. 1940-yil "Tohir va Zuhra" spektaklini sahnalashtirish jarayonida teatr ilk bor notalashtirilgan orkestrga utadi. Jamoaga taklif etilgan asar musiqasining muallifi T. Jalilov, teatr dirijyori D. Zokirov, malakali sozandalar, N. Hoshimov va Noila Hoshimova, Qamara Burnasheva Moskva konservatoriyasi qoshidagi opera studiyasini bitirib (1940-yil) teatrga keladilar va musiqali dramalarda bosh rollarni ijro etadilar. Ikkinchi jahon urushi yillarida vatanparvarlik mavzusidagi asarlar teatr repertuaridan urin oldi: "Qurbon Umarov", "Davron ota", "Hamshahar yigit", "Front buylab buyruq", "O'lim bosqinchilarga!", "Farzand" va boshqa 40-yillarning 2-yarmidagi spektakllar orasida "Hayot ko'shig'i", "Navbahor", "Boy ila xizmatchi" alohida urin tutadi. Bu davrga kelib teatr O'zbekistonning yetakchi teatr jamoalari safiga qo'shildi va

1953-yil Toshkentda navbatdagi ijodiy safarini amalga oshirib, "Alisher Navoiy", "Sepsiz qiz", "Oila", "Shamsiqamar", "Shohi soʻzana", "Sepli toʻy", "Layli va Majnun" spektakllarini namoyish etdi. Bunda A. Joʻrayev, 3. Sodiqova, Z. Sodiqov, R. Mansurov, B. Nuriddinov, T. Nuriddinova, Oʻ. Sultonov, Sh. Boboxonov, Yu. Komilov, K. Muslimova. B. Tojiyev singari artistlar sahna ustalari darajasiga koʻtarilgani, musiqali drama janri boʻyicha O. Mavlonova, S. Shukurova, L. Egamberdiyeva, O. Muqimova, M. Ermatov, Oʻ. Sultonov, U. Mahmudov singari ijrochilar teatrning yetakchi vokal kuchlari ekani koʻzga tashlandi. 50—60yillar teatrga Yuriy Stankevich (rej.), I. Poʻlatov, P. Saidqosimov, T. Qurbonov, G. Nurxonov, Sh. Samandarov, N. Toshkanboyeva, A. Toshkanboyev, M. Ahmedov, O. Beganjiyev, K. Nasriddinov, R. Joʻraqulova, T. Qudratov, N. Komilov, T. Hakimov, S. Hakimovlarning kelib qoʻshilishi teatr ijodiy barkamolligini taʼminladi. "Girdob", "Parvona", "Ayajonlarim", "Dilorom", "Toʻy", "Nodira", "Qiz qalʼasi", "Farogʻat", "Fargʻona hikoyasi", "Qaltis hazil", "Oqpadar", "Gang daryosining qizi", "Otello", "Qiyomat qarz", "Qaroqchilar", "Odam tugʻildi", "Sertashvish keksalik", "Sarvqomat dilbarim", "Ezop", "Tentak", "Xiylai sharʼiy", "Maysaraning ishi", "Mehmon", "Bandai gumroh" ("Ona kuraj"), "Sada ostidagi muhabbat" ("Muhabbat fojiasi"), "Tubanlikda", "Isqirt satang", "Insonlikka nomzod", "Nomi oʻchsin!", "Besh kunlik kuyov", "Prokuror" kabi musiqali va sof dramatik asarlar 60—70-yillarda yaratildi. Bu asarlarni 3. Sodiqova, M. Tolipov, J. Mahmudov kabi rej.lar sahnalashtirdilar va K. Nasriddinov, B. Ismoilov, A. Daminova, Sh. Samandarov, O. Joʻrayev, P. Joʻraqulova, M. Ahmedov, T. Qurbonov kabi artistlar yetakchilik qildilar. Teatr 1991-yilda Davlat opera va balet teatri bilan birlashtirilib musiqali drama teatri deb yuritila boshladi. Mustaqillik yillari "Sarhovuzning boʻylarida", "Gunohsiz gunohkorlar", "Imom Buxoriy", "Qitmir", "Samarqandnoma", "Behbudiy", "Spitamen", "Oqibatli qoʻshnilar" kabi yirik dramalar bilan birga "Nodirabegim", "Alpomish", "Chimildiq", "Ravshan va Zulxumor", "Farhod va Shirin" musiqali dramalari, "Samarqand afsonasi", "Ipak yoʻli", "Xonim va bezori" baletlari, bolalar uchun "Kichkintoy va Karlson", "Goʻzal Vasilisa", "Uch choʻchqacha", "Aklli quyuncha", "Sehrli sandiq", "Chandining

sarguzashtlari" musiqali ertaklar davr ruhi asosida sahnalashtirildi. Truppada R. Jo'raqulova, B. Rahimov, A. Qurbonov, T. Ochiltoshev, T. Pardayev, 3. Turg'unboyeva, S. Saidova, B. Islomov, D. Raximova, M. Hakimova, Sh. Sanaqulov, J. Yorqulov va boshqa teatrning yetakchi aktyorlaridir. Teatrning bosh dirijyori — Sharofiddin Jumaboyev. Teatrning bosh rassomi — Davron Safoyev.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sahna ma'naviyati (SH. Rizayev)
2. Sahna nutqi (U. Boltaboyeva)
3. Qo'g'irchoq teatr tarixi (M. Qodirov, S. Qodirova)
4. Qo'g'irchoq boshqarish asoslari (D.D.Abdullayev, L.D.Usmanova)
5. Teatr tarixi (S. Tursunboyev)
6. Aktyorlik Mahorati (R. O'tganov)

Foydalanilgan web-saytlar:

1. Tafakkur.net
2. Ziyouz.com sayti
3. Qomus.info sayti
4. Saviya.uz sayti
5. Shosh.uz sayti